

INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY



Scopus || Electronic journal specializing in Scopus

ISSUE 10



Acceptance of papers **October, 2025**



Acceptance of papers

Published monthly



Topics

economics, technology, social sciences

ISSN 3060-5229



Digital Object Identifier



Visit the website t.me/scopus_IST2100



EDITOR-IN-CHIEF:

Mirzaliev Sanjar Makhmatjon ugli

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Makhmudov Nosir Makhmudovich
DSc., Prof., Academician

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli – Senior
lecturer at TSUI

THE SCIENTIFIC-POPULAR ELECTRONIC
JOURNAL **"INNOVATION SCIENCE AND
TECHNOLOGY"** HAS BEEN REGISTERED
UNDER THE NUMBER **C-5669633** BY THE
AGENCY FOR INFORMATION AND MASS
COMMUNICATIONS (AOKA) OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN, EFFECTIVE
FROM OCTOBER 9, 2024.

CONTACTS

Phone: **+998 50 737 87 88**

Website: <https://ist-journal.uz>

Email: innovationist2025@gmail.com

The scientific electronic journal "Innovation Science and Technology" has been included in the list of scientific publications recommended for the publication of main scientific results of dissertations for the award of PhD and DSc degrees in economics and technical sciences, in accordance with the Resolution No. 370 of the Presidium of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan, dated May 8, 2025.

Editorial board:



Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,
Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor



Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,
Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor



Cham Tat Huei,
Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)



Muhammad Imran Sadiq
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Professor, Malaysia



Ahmed Aziz Ismail
Doctor of Technical Sciences (DSc),
Professor (Egypt)



Lee Chin
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
(Malaysia)



Asongu Simplicé
Doctor of Philosophy in Economics (PhD),
Cameroon



Rui Dang
Doctor of Chemistry (DSc), Professor, China



Zahoor Ahmed
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Turkey



Shujaat Abbas
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Russia



Tina A Coffelt
Doctor of Philosophy in Educational Sciences
(PhD), USA



Judy B. Smetana
Doctor of Philosophy in Economics (PhD), USA

CONTENTS

WAYS TO EXPAND THE COMPANY'S POSITION IN THE FURNITURE MARKET	6
Musayeva Shoirazimovna	
DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISM OF MEDICINAL PLANT PROCESSING	11
Usmonov Mirgulom Khoshim o'gli	
POLITICAL RELATIONS BETWEEN AZERBAIJAN AND UZBEKISTAN: HISTORY, CHALLENGES, AND PROSPECTS	17
Naila Ramazanova	
ANALYZING THE SUSTAINABILITY OF REGIONAL ECONOMIES USING MULTI-CRITERIA INDICES AND MODEL OPTIMIZATION	23
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
ECONOMIC ADVANTAGES OF MODERNIZING THE EDUCATION SYSTEM THROUGH INNOVATIVE TECHNOLOGIES	28
Rakhmatkhodjayev Akhrorhodja Akmal ugli	
XORIJIY MAMLAKATLAR KORPORATIV BOSHQARUV VA INNOVATSION RIVOJLANISH MODELLARINING QIYOSIY TAHLILI	34
Ismailov Allayor Rashidovich	
DIGITALIZATION OF FOREIGN EXCHANGE DIFFERENCE ACCOUNTING: CHALLENGES AND PROSPECTS IN EMERGING ECONOMIES	41
Pulatov Sirojbek, Misirov Kamoldin	
ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ	47
Ташмухамедова Яйра Атхамовна	
MAIN MEASURES TO STRENGTHEN EMPLOYMENT STABILITY AND IMPROVE EMPLOYMENT MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	52
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE IMPACT OF INVESTMENTS ON THE CREATION OF NEW JOBS	57
Shayzak R. Kholmuminov, Shukhrat Sh. Kholmuminov	
RAQAMLASHTIRISH VA YASHIL TURIZM KONSEPSIYASI ASOSIDA TURIZM SOHASINING BARQAROR RIVOJLANISHI	68
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH ORQALI XUSUSIY SEKTOR ROLINI OSHIRISHNING IJTIMOY MUHITGA TA'SIRI	73
Musurmonqulov Muhammad	

IQTISODIYOTDA DAVLAT ISHTIROKINI QISQARTIRISH ORQALI XUSUSIY SEKTOR ROLINI OSHIRISHNING IJTIMOY MUHITGA TA'SIRI

Musurmonqulov Muhammad

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy hodimi
investor.0523@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish orqali xususiy sektor rolini oshirish jarayonlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Jahon tajribasi va O'zbekiston amaliyoti misolida xususiy sektorning iqtisodiy o'sish, bandlik, ijtimoiy barqarorlik hamda o'rta sinf shakllanishiga qo'shayotgan hissasi yoritilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, statistik usullar va kontent-tahlil qo'llanilgan. Olingan natijalar davlat ishtirokini kamaytirish ijtimoiy muhitning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: davlat ishtiroki, xususiy sektor, bozor iqtisodiyoti, investitsiya muhiti, raqobat, ijtimoiy barqarorlik.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of reducing state participation in the economy and strengthening the role of the private sector. Based on international experience and Uzbekistan's practice, the contribution of the private sector to economic growth, employment, social stability, and the development of the middle class is emphasized. The research methodology includes comparative analysis, statistical methods, and content analysis. The findings demonstrate that reducing state participation contributes to the sustainable development of the social environment.

Key words: state participation, private sector, market economy, investment climate, competition, social stability.

Аннотация: В статье теоретически и практически анализируются процессы сокращения участия государства в экономике и усиления роли частного сектора. На примере международного опыта и практики Узбекистана показан вклад частного сектора в экономический рост, занятость, социальную стабильность и формирование среднего класса. В качестве методологии использованы сравнительный анализ, статистические методы и контент-анализ. Полученные результаты показывают, что сокращение участия государства способствует устойчивому развитию социальной среды.

Ключевые слова: участие государства, частный сектор, рыночная экономика, инвестиционный климат, конкуренция, социальная стабильность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning asosiy vazifalaridan biri — iqtisodiyotni tartibga solish bilan birga, xususiy sektor uchun qulay sharoit yaratishdan iboratdir. Davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtiroki qisqartirilishi natijasida xususiy sektor faollashadi, raqobat kuchayadi va natijada jamiyatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy muhit shakllanadi. Ushbu jarayon O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning ham asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham "Yangi O'zbekiston – taraqqiyot strategiyasi – 2030" doirasida iqtisodiy liberallashtirish, davlat korxonalarini xususiyashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda investitsion muhitni yaxshilash ustuvor vazifa qilib belgilangan [6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat ishtirokini qisqartirishning mohiyati iqtisodiyotda davlatning bevosita aralashuvini kamaytirib, xususiy sektor faoliyatini kengaytirish orqali samaradorlikni oshirishdan iborat. Bu jarayon turli shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat mulkini xususiyashtirish;
- davlat korxonalarini sonini kamaytirish;

- tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish;
- raqobat muhitini yaratish va investitsiyalarni rag'batlantirish.

Davlat mulkini xususiyashtirish — bu davlat tasarrufidagi korxonalar, tashkilot yoki mulkni xususiy shaxslarga, tadbirkorlarga, aksiyadorlik jamiyatlariga yoki boshqa nodavlat subyektlarga sotish, ularga topshirish yoki aksiyalash orqali ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish jarayonidir.

Davlat korxonalarini kamaytirish — iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mohiyati davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiy sektorga topshirish, tugatish yoki qayta tashkil etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan iborat.

Tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirish — bu davlatning iqtisodiy faoliyatga qo'yadigan ortiqcha byurokratik to'siqlarini kamaytirish, ruxsatnoma va litsenziya olish jarayonlarini tezlashtirish, ortiqcha nazorat va tekshiruvlarni optimallashtirish orqali tadbirkorlik muhitini qulaylashtirish jarayonidir.

Davlat ishtirokini qisqartirish jarayonida raqobat muhitini shakllantirish va investitsiyalarni rag'batlantirish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki muhim yo'nalishdir. Bu ikki omil iqtisodiyotning erkin, samarali va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xususiy sektorning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatlarini ko'radigan bo'lsak:

- Bandlik — xususiy tadbirkorlik yangi ish o'rinlari yaratish orqali ishsizlik darajasini kamaytiradi.
- Investitsiyalar — mahalliy va xorijiy kapitalni jalb etish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi.
- Raqobat — sifatni oshirish va narxlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.
- O'rta sinf shakllanishi — bu ijtimoiy barqarorlik va farovonlikning kafolati hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki:

– Janubiy Koreya: davlat ishtirokini kamaytirish va xususiy sektorni rag'batlantirish orqali "iqtisodiy mo'jiza"ga erishdi.

– Turkiya: 1980-yillardagi liberal islohotlar natijasida eksport salohiyati kuchaydi.

– AQSh va Yevropa Ittifoqi: kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayveri sifatida rivojlanmoqda.

O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatimizda 1000 dan ortiq davlat korxonalarini xususiyashtirish jarayoniga kiritildi, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 55–60 % atrofida shakllandi, xususiy sektor tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni 2 milliondan ortdi, xorijiy investitsiyalar hajmida sezilarli o'sish kuzatildi.

Davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor rolini kuchaytirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon o'rta sinfni kengaytirish, bandlik darajasini oshirish va aholining farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Davlatning iqtisodiyotdagi o'rni masalasi iqtisodiy tafakkur tarixida eng ko'p bahs-munozaraga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Klassik iqtisodchilar — A. Smit ("Millatlar boyligi", 1776) va D. Rikardo — bozorning o'zini-o'zi tartibga solish imkoniyatiga urg'u berib, davlatning haddan tashqari aralashuvini tanqid qilgan. Keyinchalik J. Keyns ("Umumiy nazariya", 1936) davlatning iqtisodiyotdagi faol rolini asoslab, bandlik va talabni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlagan.

Zamonaviy iqtisodchilar ham masalaga turlicha qarashadi. M. Fridman (2002) [2] bozor iqtisodiyotining ustuvorligini, davlat esa faqat tartibga soluvchi vositalarni qo'llashini ta'kidlagan. J. Stiglitz (2003) [5] esa globallashtirish jarayonida davlatning muvozanatni saqlovchi va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi rolini kuchaytirish kerakligini ko'rsatadi.

D. Acemoglu va J. Robinson (2012) [1] esa rivojlanishning asosi sifatida samarali institutlarni belgilab, davlatning iqtisodiyotdagi roli inklyuziv bo'lishi kerakligini qayd etadi. Jahon banki, IMF va OECD hisobotlari esa xususiy sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ilmiy dalillar bilan asoslab bermoqda.

O'zbekiston olimlari orasida ham iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish masalasi keng o'rganilgan. Masalan, X. Abduraimov bozor institutlarining shakllanishi, S. Xodjaev xususiyashtirish jarayonlari, B. Usmonov esa ijtimoiy muhitni rivojlantirishda tadbirkorlikning rolini tadqiq qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola umume'tirof etilgan metodlar, jumladan:

- Nazariy tahlil – iqtisodiy nazariyalar, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarni o'rganish.
- Qiyosiy tahlil – Janubiy Koreya, Turkiya, AQSh va Yevropa tajribasini O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslash.
- Statistik tahlil – Davstatqo'm, Jahon banki va IMF hisobotlari asosida bandlik, investitsiya, YAIM o'sishi ko'rsatkichlarini o'rganish.
- Kontent-tahlil – Prezident farmonlari, "Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi", xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini tahlil qilish.
- Empirik kuzatuv – so'nggi yillarda xususiy sektor rivojiga oid real misollarni jamlash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu mavzuda xalqaro tajribalarni tahlil qiladigan bo'lsak:

Janubiy Koreya – 1960-yillardan boshlab davlat korxonalarini xususiylashtirib, xususiy sektorni innovatsion rivojlanishga yo'naltirdi. Natijada YAIM o'sishi 7–9 % darajasida bo'ldi.

Turkiya – 1980-yillarda iqtisodiy liberallashtirish va eksportga yo'naltirilgan siyosat natijasida o'rta sinf kuchaydi.

AQSh va Yevropa – kichik va o'rta biznes YAIMning 60–70 % ini tashkil etadi, ijtimoiy muhitning barqarorligiga asos bo'lmoqda.

Shu bilan birga O'zbekiston tajribasini ko'radigan bo'lsak, so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar natijalari:

2023-yilda YAIMdagi xususiy sektor ulushi – 63 % atrofida shakllandi, bandlik – xususiy tadbirkorlik sohasida 1,9 mln ish o'rni ta'minlandi, investitsiyalar – umumiy investitsiyalarda xususiy sarmoya ulushi 62 % ni tashkil etdi, Doing Business reytingi – O'zbekiston 69-o'rinni egalladi [7].

2024-yilda YAIMdagi xususiy sektor ulushi – 65 % gacha ko'tarildi, bandlik – xususiy sektor orqali yaratilgan yangi ish o'rinlari 2,1 mln ga yetdi, investitsiyalar – xususiy investitsiyalarning umumiy hajmdagi ulushi 66 % ni tashkil etdi, eksport – xususiy korxonalar hissasida umumiy eksportning 58 % i shakllandi [8].

2025-yil (proqnoz va dastlabki ko'rsatkichlar) YAIMdagi xususiy sektor ulushi – 67–68 % gacha yetishi kutilmoqda, bandlik – 2,3 mln dan ortiq ish o'rni yaratilishi prognoz qilinmoqda, investitsiyalar – xususiy sarmoya ulushi 68 % dan oshishi rejalashtirilmoqda, innovatsion iqtisodiyot – startup va texnoparklarda xususiy sektor hissasi 20 % dan 30 % gacha kengayishi kutilmoqda [9].

Ushbu tahliliy ma'lumotlarning ijtimoiy natijalariga to'xtaladigan bo'lsak:

O'rta sinf kengaymoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda xususiy sektorning faollashuvi natijasida o'rta sinfnin salmog'i ortib bormoqda. O'rta sinf vakillari nafaqat iqtisodiy barqarorlikning, balki ijtimoiy muvozanatning ham asosiy tayanchi hisoblanadi. Ularning iste'mol darajasi oshishi ichki bozorni kengaytiradi, bu esa tadbirkorlik subyektlari faoliyatining yanada rivojlanishiga zamin yaratadi. Jahon tajribasida ham o'rta sinfnin kengayishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy omil sifatida qayd etiladi.

Ijtimoiy infratuzilmalarga xususiy mablag'lar yo'naltirilmoqda. Xususiy sektor faqat iqtisodiy daromad olish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga ham tobora ko'proq investitsiya kiritmoqda. Xususan, xususiy klinikalar, ta'lim markazlari, oliy ta'lim muassasalari va nodavlat maktablarning soni ortib bormoqda. Bu jarayon davlat byudjeti yukini kamaytiradi va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Davlatqo'm ma'lumotlariga ko'ra, 2023–2024-yillarda sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi xususiy investitsiyalar hajmi 20 % ga oshgan.

Ijtimoiy mas'uliyatli biznes tamoyillari joriy etilmoqda. So'nggi yillarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) tamoyillari O'zbekiston xususiy sektorida ham faol qo'llanila boshladi. Yirik kompaniyalar ekologiya, ta'lim, sport va madaniyatni qo'llab-quvvatlash sohalariga homiylik qilishmoqda. Masalan, 2024-yilda o'tkazilgan davlat-xususiy sheriklik (PPP) loyihalarining 15 % i ijtimoiy sohalariga qaratilgan bo'lib, bu aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish orqali xususiy sektorning faolligini oshirish nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy sektor investitsion muhitni yaxshilash, sog'lom raqobatni shakllantirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Shuningdek, xususiy sektor iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida jamiyatda o'rta sinfni kengaytiradi, ijtimoiy infratuzilmalarga sarmoya kiritadi hamda ijtimoiy mas'uliyatli biznes tamoyillarini joriy etadi. Bu jarayon aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishga, ijtimoiy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlari, tadbirkorlik muhitining erkinlashtirilishi va davlatning tartibga soluvchi rolini kuchaytirishi ijobiy natijalar bermoqda. Kelgusida bu yo'nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va ijtimoiy barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu mavzudagi dolzarb masalalarni yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

Xususiylashtirish jarayonini shaffof va bosqichma-bosqich amalga oshirish. Xususiylashtirishni birdaniga amalga oshirish iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Shu bois jarayon bosqichma-bosqich va puxta o'ylangan dasturlar asosida amalga oshirilishi lozim. Har bir bosqichda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida ishonch mustahkamlanadi.

Kichik va o'rta biznes uchun soliqqa oid imtiyozlar va kredit resurslarini kengaytirish.

KOB (SME) sektori mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ularni qo'llab-quvvatlash uchun soliqqa oid yengilliklar, past foizli kreditlar, subsidiyalar hamda davlat kafolatlari tizimini kengaytirish zarur. Bu bandlikni oshirish va yangi innovatsion g'oyalarning amaliyotga joriy etilishiga turtki beradi.

Monopoliyaga qarshi siyosatni kuchaytirish va sog'lom raqobatni rivojlantirish.

Monopoliyalarni cheklash va erkin raqobat muhitini yaratish mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, narxlarning barqarorligini ta'minlaydi hamda iste'molchilar manfaatlarini himoya qiladi. Shu maqsadda Antimonopoliya qo'mitasining vakolatlarini kengaytirish va xalqaro tajriba asosida yangi mexanizmlar joriy etish tavsiya etiladi.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tishda xususiy sektorni jalb qilish.

Raqamli texnologiyalar, startaplar va ilm-fan yutuqlari asosida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda xususiy sektor faol ishtirok etishi zarur. Buning uchun texnoparklar, inkubator markazlari, venchur fondlarini rivojlantirish va ular uchun soliq yengilliklari yaratish maqsadga muvofiqdir.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish (PPP – Public Private Partnership).

Davlat-xususiy sheriklik modeli infratuzilma, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va energetika kabi sohalarda samarali qo'llanilishi mumkin. PPP loyihalari orqali davlat investitsion yukini kamaytirib, xususiy kapitalni jalb qiladi va aholiga sifatli xizmatlar taqdim etilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Acemoglu, D., & Robinson, J. A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Business.
2. Friedman, M. (2002). *Capitalism and Freedom*. University of Chicago Press.
3. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
4. Rodrik, D. (2007). *One Economics, Many Recipes: Globalization, Institutions, and Economic Growth*. Princeton University Press.
5. Stiglitz, J. E. (2003). *Globalization and Its Discontents*. W.W. Norton & Company.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030*. Toshkent.
7. 2023-yil ma'lumotlari uchun manbalar: Davlat statistika qo'mitasi (Davstatqo'm). O'zbekiston Respublikasining 2023-yil yakuniy iqtisodiy ko'rsatkichlari (YAIM, bandlik, investitsiyalar ulushi). Jahon banki. *Uzbekistan Economic Update (2023): O'zbekiston iqtisodiy o'sishi va xususiy sektor rivojlanishi bo'yicha tahlillar*. IMF. *Uzbekistan Article IV Consultation Report (2023): investitsiyalar va iqtisodiy islohotlar prognozi*.
8. 2024-yil ma'lumotlari uchun manbalar: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2024-yil yanvar): xususiylashtirish, investitsiyalar va tadbirkorlik muhitiga oid raqamlar. Davlat statistika qo'mitasi (2024-yil 1-yarim yillik va 9 oylik hisobotlari). OECD. *Fostering SMEs and Entrepreneurship in Transition Economies (2024): O'zbekiston va boshqa davlatlarda kichik biznes ulushi tahlillari*.
9. 2025-yil prognozlari uchun manbalar: Yangi O'zbekiston – 2030 taraqqiyot strategiyasi (2022-yil qabul qilingan): 2025-yilgacha bo'lgan asosiy prognoz va ko'rsatkichlar. Jahon banki prognozlari. *Global Economic Prospects (2025)*. IMF. *World Economic Outlook (2025 forecast): YAIM, investitsiya va bandlik bo'yicha O'zbekiston prognozlari*. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi prognozlari (2025-yil budjet va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar loyihalari).

Proofreader: Zokir ALIBEKOV

Layout and Designer: Oloviddin Sobir ugli

2025. № 10

© When materials are reproduced, the INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY journal must be cited as the source. Authors are responsible for the accuracy of the information in materials and advertisements published in the journal. Editorial opinions may not always align with those of the authors. Submitted materials will not be returned to the editorial office.

To publish articles in this journal, you may submit articles, advertisements, stories, and other creative materials through the following links. Materials and advertisements are published on a paid basis.

You may subscribe to the journal at any time using the following details. Once subscribed, please send a screenshot or photo of your payment confirmation to our Telegram page @iqtisodiyot_77. Based on this, we will send the latest issue of the journal to your address each month.

“The journal “INNOVATION SCIENCE AND TECHNOLOGY” has been registered by the Agency for Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan from 09.10.2024 under the registration number №390637. License number: C-5669633. PNFL: 30407832680027

Our address: Tashkent city, Yunusobod district, 19th block,
House 17.



Acceptance of articles
Published every
monthly



Directions
Social, economic, political,
technological, scientific

 **Scopus || Scientific electronic journal specializing in Scopus**

CERTIFICATE NUMBER: №390637

**ORDER NUMBER ACCORDING TO
THE LICENSE REGISTER: C-5669633**

CONTACT:

-  Contact us
+998 50 737 87 88
-  Telegram channel
t.me/scopus_IST2100

 Journal official website
<https://ist-journal.uz/index.php/IST>